

		EMITENTNING NOMI						
1.	To'liq nomi:	"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati						
	Qisqartirilgan nomi:	«O'zIQMK» AJ						
	Birja belgisi nomi:*	yo'q						
		ALOQA MA'LUMOTLARI						
2.	Manzil:	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh.						
	Pochta manzili:	O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., 100084, Amir Temur shoh ko'chasi, 107B, ofis 14A, Xalqaro Hamkorlik Markazi						
	Elektron pochta manzili:*	info@uzmrc.uz						
	Rasmiy veb-sayt:*	www.uzmrc.uz						
		MUHIM FAKT TO'G'RISIDA MA'LUMOT						
3.	Muhim faktning raqami:	06						
	Muhim faktning nomi:	Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shu jumladan xo'jalik jamiyatlari kuzatuv kengashining aksiyalar, korporativ obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish bo'yicha qarorlari						
	Majlis turi:	Kuzatuv kengashi						
	Majlis sanasi:	22.12.2023 y						
	Bayonnoma tuzilgan sana:	27.12.2023 y						
	O'tkazish joyi:	ZOOM dasturi orqali onlayn video muloqot						
	Majlis kvorumi:	100 %						
	№	Ovozga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish natijalari					
			yoqlayman		qarshiman		betarafman	
		%	miqdori	%	miqdori	%	miqdori	
3.	"O'zIQMK" AJ ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalar chiqarish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilish	100	7	0	0	0	0	
4.	"O'zIQMK" AJ qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash	100	7	0	0	0	0	
Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'liq tahriri:								

3. "O'zIQMK" AJ ustav kapitalini ko'paytirish maqsadida qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror quyidagicha qabul qilinsin:

- har birining nominal qiymati 1000 (Bir ming) so'm;
- 808 100 000 (Sakkiz yuz sakkiz million bir yuz ming) dona;
- jami qiymati 808 100 000 000 (Sakkiz yuz sakkiz milliard bir yuz million) so'm miqdorida hujjatsiz shaklda egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar qo'shimcha chiqarish;
- mazkur chiqarilish doirasida chiqarilayotgan aksiyalar, ushbu qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi jamiyat aksiyadorlari reestrda mavjud aksiyadorlarga imtiyozli xuquq beriladi hamda imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaganidan keyin qolgan aksiyalar Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, "Ipoteka-bank" ATIB, "Biznesni rivojlantirish banki" ATB, "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ, "O'zbekiston sanoat - qurilish banki" ATB, AT "Xalq Banki", "Asakabank" AJ, "Agrobank" ATB, "Turonbank" ATB, "Orient finans bank" ATB, "Hamkorbank" ATB, "Aloqabank" ATB va "Mikrokreditbank" ATBlarga, yopiq obuna usuli bilan joylashtiriladi;
- aksiyalar joylashtirilishining muddati davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 2024 yil 1 iyunga qadar etib belgilansin;
- aksiyalarni joylashtirish boshlash sanasi — imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi axborot e'lon qilingan kundan e'tiboran 11 (o'n birinchi) kun, biroq imtiyozli sotib olish huquqining amal qilish muddati o'tguniga qadar jamiyatning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, aksiyalarni joylashtirish ushbu arizalar kelib tushgan kundan keyingi ish kunida boshlanadi. Agar aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi bank hisob operatsiyalari uchun dam olish kuniga to'g'ri kelsa, unda aksiyalarni joylashtirish keyingi birinchi ish kunida boshlanadi;
- aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – mazkur chiqarilishning so'nggi aksiyasi joylashtirilgan kun. Biroq aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi, mazkur chiqarilish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 2024 yil 1 iyundan oshmasligi lozim;
- mazkur chiqarilayotgan aksiyalar jamiyat tomonidan mustaqil ravishda, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilarini (anderrayterlarni) jalb etmasdan joylashtiriladi. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirilish qimmatli qog'ozlarning tashkillashtirilmagan (uyushmagan) birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzilgan holda, yopiq obuna usulida joylashtiriladi;
- ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olishga imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxati aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sana (22.12.2023 yil holati)ga shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquq aksiyadorlar tomonidan o'zlariga tegishli bo'lgan oddiy aksiyalar soniga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Aksiyalar chiqarilishi davlat

	<p>ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati imtiyozli huquqni amalga oshirish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida bildirish e'lon qilingan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kalendarъ kunni tashkil etadi. Bildirish matnida joylashtirilayotgan aksiyalarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim;</p> <ul style="list-style-type: none"> • ushbu chiqarilishdagi aksiyalar uchun to'lovlar faqat pul mablag'lari bilan, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi. Qo'shimcha aksiyalarga ushbu aksiyalarni joylashtirish muddati ichida to'liq haq to'lanishi lozim; • ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda ushbu xolat to'g'risida qonunchilikda o'rnatilgan tartibda ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi. Aksiyalar uchun to'langan mablag'lar investorlarga 10 (o'n) kun davomida qonunchilikda belgilangan tartibda qaytarib beriladi.
4.	4. "O'zIQMK" AJ qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror 3-Ilovaga asosan tasdiqlansin.

Bosh ijrochi direktor

Farmanov Murodjon Jabbarovich

Bosh buxgalter v.v.b.

Shoymardanov Bahtiyor
Bahriddinovich

Veb saytga ma'lumot
joylashtirgan vakolatli shaxs:

Burieva Lobar Xazratkulovna